

hozirgi holati ilmiy asoslangan holda tahlil qilindi. Shuningdek, respublikada ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi, raqobat ustunliklari, diversifikatsiya darajasi, ishlab chiqarishning o'sish nuqtalari yoritib berildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3182 sonli qarori;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4231-sonli qarori.[www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Fayziyeva Sh.>Yuldasheva N. The role of livestock research in the development of the countrys economy. ACADEMICIA: An International multidisciplinary research Jurnal.<https://saarj.com> ISSN:2249-7137vol.11. Issue 2.February 2021; 122-b

### **QISHLOQ XO'JALIGIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARI MAQSADI.**

**Nasirov B.M., Qo'zibayeva K.Q., Qarshiyeva F.I., Eshpo'lotov J.SH.**  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada axborot tizimlari va texnologiyalari fanining asosiy mavzularidan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi boshqaruv faoliyatida axborot texnologiyalarining ahamiyati" to'g'risida fikr yuritiladi. Qishloq xo'jaligini boshqaruvi borasida nazariy va amaliy bilimlar berib boriladi. Xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yuqori samaradorlikka erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham yuqori salohiyatga va malakaga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi bo'yicha mutaxasislarni tayyorlashda qishloq xo'jaligida axborot texnologiyalar fanining o'rni beqiyosdir.

**Kalit so'zlar.** Axborot texnologiyalari, Informatsion texnologiyalari (IT), qishloq xo'jaligi, agrosanoat, axborot maslahat markazi (AKM), internet qidiruv tizimlari, Global joylashishni aniqlash tizimi (GPS), Geografik axborot tizimi (GIS)

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение информационных технологий в управлении сельским хозяйством, что является одной из основных тем науки об информационных системах и технологиях. Даются теоретические и практические знания по управлению сельским хозяйством. Использование информационных и коммуникационных технологий в организации и управлении производством в сельском хозяйстве, являющемся основной отраслью народного хозяйства, является одним из основных факторов достижения высокой эффективности.

Поэтому роль информационных технологий в сельском хозяйстве в подготовке сельскохозяйственных специалистов с высоким потенциалом и квалификацией несравнима.

**Ключевые слова.** Информационные технологии, Информационные технологии (ИТ), сельское хозяйство, агропромышленный комплекс, информационно-консультационный центр (АКМ), Интернет-поисковые системы, Глобальная система позиционирования (GPS), Географическая информационная система (ГИС).

**Abstract.** This article discusses the importance of information technology in agricultural management, which is one of the main topics of the science of information systems and technologies. Theoretical and practical knowledge of agricultural management is given. The use of information and communication technologies in the organization and management of production in agriculture, which is the main branch of the national economy, is one of the main factors in achieving high efficiency. Therefore, the role of information technology in agriculture in the training of agricultural specialists with high potential and qualifications is incomparable.

**Keywords.** Information technology, Information technology (IT), agriculture, agro-industrial complex, information and consultation center (AKM), Internet search engines, Global Positioning System (GPS), Geographic Information System (GIS).

Hozirgi vaqtda Axborot kommunikatsiya texnologiyalari foydalanilmaydigan biror bir soha yo'q. Jumladan, tibbiyotning barcha yo'nalishlarida axborot texnologiyalarining ro'li kundan-kunga oshib bormoqda. Ammo tibbiyot oliy o'quv yurtlariga mo'ljallangan o'quv adabiyotlari deyarli yo'q.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari keng ma'noda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida asosan kompyuterlar va telekommunikatsiya aloqa vositalari yordamida axborotni qayta ishlashi bilan bog'liq fan, texnika va ishlab chiqarishning xilma-xil tarmoqlari birligini o'zida namoyon etadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari tor ma'noda o'zaro aloqador uch qism — texnik vositalar (hardware), dasturiy vositalar (sojtware) va algoritimli vositalar (brainware) sifatida tasavvur etish mumkin. O'z navbatida informatikani ham umuman, ham qismlari bo'yicha turli jihatlardan xalq xo'jaligi tarmog'i, fundamental fan, amaliy fan sohasi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari xalq xo'jaligi tarmog'i sifatida kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va axborotni qayta ishlash zamonaviy texnologiyasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan turli korxonalarining bir turda jamlanishidan iborat bo'ladi. Informatikaning ishlab chiqarish tarmog'i sifatidagi o'ziga xosligi va ahamiyati shundaki, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari mehnat samaradorligi ko'p jihatdan unga bog'liqdir. Bundan tashqari, bu tarmoqlar me'yorida rivojlanishi uchun informatikaning o'zida mehnat samaradorligi ancha yuqori sur'atlarda o'sib borishi lozim, chunki hozirgi davrda jamiyatda axborot ko'proq so'nggi iste'mol predmeti sifatida namoyon bo'lmoqda: odamlarga dunyoda ro'y berayotgan voqealar, ularning kasbiy faoliyatiga doir predmet va hodisalar, fan va jamiyatning

rivojlanishi haqida axborot zarur. Mehnat samaradorligining bundan keyingi o‘shishi va farovonlik darajasini ko‘tarish, katta hajmdagi multimedia axborotini (matn, grafika, videotasvir, tovush, animatsiya) qabul qilish va ishlashga yangi intellektual vositalar va “inson— mashina” interfeyslaridan foydalanish asosidagina erishish mumkin. Informatikada mehnat unumdorligi oshishi suratlari yetarli bo‘lmasa, butun xalq xo‘jaligida mehnat samaradorligi o‘shishining anchagina kamayishi ro‘y berishi mumkin. Hozir dunyodagi barcha ish joylarining 50 foizga yaqini axborotni qayta ishlash vositalari bilan ta'minlangan.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari fundamental fan sifatida kompyuter axborot tizimlari negizida istalgan obyektlar bilan boshqaruv jarayonlarini axborot jihatidan ta'minlashni barpo etish metodologiyasini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Shunday fikr ham mavjudki, fanning asosiy vazifalaridan biri – axborot tizimlari nima, ular qanday o‘rinni egallaydi, qanday tuzilmaga ega bo‘lishi lozim, qanday ishlaydi, uning uchun qanday qonuniyatlar xos ekanligini aniqlashdir. Hozirgi vaqtda informatika sohasida quyidagi asosiy ilmiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: tarmoq tuzilmasini ishlab chiqish, kompyuterli integratsiyalashgan jarayonni ishlab chiqish, iqtisodiy va tibbiy informatika, ijtimoiy sug‘urta va atrof-muhit informatikasi, professional axborot tizimlari. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari fundamental tadqiqotlar maqsadi istalgan axborot tizimlari haqida umumlashtirilgan axborotni olish, ularning qurilishi va ishlashining umumiy qonuniyatlarini aniqlashdir. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi sifatida quyidagilar bilan shug‘ullanadi:

- axborot jarayonlaridagi qonuniyatlarni o‘rganish (axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tarqatish)
- inson faoliyatining turli sohalarida kommunikatsion - axborot modellarini yaratish
- aniq bir sohalarda axborot tizimi va texnologiyalarini ishlab chiqish va ularning hayotiy bosqichini belgilash, ularni ishlab chiqarish, ishlash va hakazolarni loyihalash, ishlab chiqish bosqichlari uchun tavsiyalar tayyorlash.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining bosh vazifasi axborotni yangilash, uslub va vositalarni ishlab chiqish, axborotni qayta ishlashning texnologik jarayonlarini tashkil etish, ulardan foydalanish usullarini ishlab chiqishdir.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- istalgan xususiyatdagi axborot jarayonlarini tadqiq etish.
- axborot jarayonlarini tadqiq etishdan olingan natijalar negizida axborotni qayta ishlaydigan axborot tizimini ishlab chiqish va yangi texnologiyani yaratish. Jamiyat hayotining barcha sohalarida kompyuter texnikasi va texnologiyasidan samarali foydalanishning ilmiy va muhandislik muammolarini yaratish, tadbiq etish va ta'minlashni hal etish.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari o‘z-o‘zicha mavjud bo‘lmay, balki boshqa sohalardagi muammolarni hal etish uchun yangi axborot texnikasi va texnologiyalarini yaratishga qaratilgan kompleks ilmiy - texnik sohadir. U boshqa sohalar, hatto jarayonlar va hodisalar noformalashuvi tufayli miqdoriy uslublarni

qo‘llash mumkin emas, deb hisoblanadigan sohalarga ham tadqiqot uslub va vositalarini taqdim etadi. Informatikada kompyuter texnikasi sharofati tufayli amaliy ro‘yobga chiqishi mumkin bo‘lgan matematik modellash uslublarining hal qilinishini alohida ajratib ko‘rsatish lozim. Axborot texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundaki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot - hisoblash tarmog‘i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta‘lim samaradorligining muhim omili bo‘lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozir olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o‘zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog‘liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog‘liqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Арипов М.М., Му Аммариев Х.В. «Информатика, информацион технологиялари», У., УДХН, 2004 й.
2. Брябрин В.М. Программное обеспечение персональных Э ВМ. М., Наука, 1990 г
3. Shoaxmedova N.X. Abdullayeva I.M. Iqtisodiyotda axborot – kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari. Darslik, - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi”, nashriyot 2021, 504b.
4. Kenjaboev A.T., Ikramov M.M., Allanazarov A.Sh. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari. - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti, 2017 yil. - 408 bet.
5. Шыныбеков Д.А., Ускенбаева Р.К. и др. Информационно коммуникационные технологии. 1-е изд. Учебник. - Алматы: Издание АО «Международный университет информационных технологий» 2017 год. — 559 стр.
6. Misty E. Vermaat, Susan L. Sebok, Steven M. Freund. Jennifer T. Campbel, Mark Frydenberg. Discovering Computers: Tools, Apps, Devices, and the Impact of Technology (textbook). Cengage Learning. 20 Channel Center Street. Boston, MA 02210. USA, 2016 year. -691 pages.